

TABIIY CHARMGA ISHLOV BERISHDA EMULSION USUL YORDAMIDA YOG‘LASHNING AHAMIYATI VA TEXNOLOGIYASI

Kamolova Zaynura Mehriddin qizi

O‘zbekiston Respublikasi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti assistenti
e-mail: zaynura.kamolova@inbox.ru

ANNOTATSIYA

Charm ishlab chiqarishda tabiati har xil yog‘ moddalari: hayvon yog‘lari, o‘simlik moylari, sintetik yog‘lar va yog‘simon moddalar ishlatiladi. Moylashning maqsadi dermaga yog‘ moddalarini elementlar strukturasi yuzasini va ular orasiga kiritib, charm va mo‘yna teri to‘qimasiga egiluvchanlik yumshoqlik va suvga chidamlilikni oshirishdan iborat. Moylar va yog‘lar mo‘yna ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega, ular mo‘ynalarni moylab pardozlashda ishlatiladi. Emulsion yog‘lash usuli samarali usul bo‘lib yarimmahsulotga etarli darajada mayinlik va egiluvchanlik beradi.

Kalit so‘zlar: *charm, charm va mo‘yna sanoati, mo‘yna, yog‘ moddalar, Emulsion yog‘lash, rezervuar, derma, emulgator.*

ABSTRACT

The production of leather uses a variety of fats: animal fats, vegetable oils, synthetic oils and fats. The purpose of lubrication is to increase the elasticity, softness and water resistance of leather and fur by inserting fatty substances into the skin on the surface of the structure of the elements and between them. Oils and fats are important in the production of fur and are used to lubricate and decorate furs. Emulsion lubrication is an effective method that gives the semi-finished product sufficient softness and flexibility.

Keywords: *leather, leather and fur industry, fur, oils, Emulsion lubrication, reservoir, dermis, emulsifier.*

АННОТАЦИЯ

В производстве кожи используются разнообразные жиры: животные жиры, растительные масла, синтетические масла и жиры. Цель смазывания – повысить эластичность, мягкость и водостойкость кожи и меха путем введения в кожу жировых веществ на поверхности структуры элементов и между ними. Масла и жиры играют важную роль в производстве меха и используются для смазки и украшения меха. Эмульсионная смазка – эффективный метод, придающий полуфабрикату достаточную мягкость и гибкость.

Ключевые слова: кожа, кожевенно-меховая промышленность, меха, масла, эмульсионная смазка, резервуар, дерма, эмульгатор.

KIRISH

Respublikamizda charm sanoati sohasiga innovatsion texnologiyalarni tadbiq qilish orqali resurstejamkor, sifatli va ayniqsa raqobatbardosh, qolaversa estetik jihatdan bejirim eksportbop mo'ynali buyumlarni yangi assortimentlarini yaratish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda.

Hozirgi vaqtda mustaqil O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyotini ko'tarish va import mahsulotlari va xom ashyolarining kirib kelishini kamaytirish uchun, charm ishlab chiqarish jarayonlari uchun qo'llaniladigan kimyoviy materiallar o'rniga, mahalliy preparatlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi.

O'zbekistonda charm sanoati yangi marra va maqsadlar sari olg'a intilib bormoqda. So'nggi yillarda o'zimizda ishlab chiqarilgan charm mahsulotlari juda keng tarqaldi. Narx, sifat va bejirimlik kabi omillar xaridorni qoniqtirib tursa, nega mahalliy mahsulotni olmaslik kerak? Buni faqatgina shu soha ichida bevosita va bilvosita faoliyat yuritayotganlarini tushunishadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Charm sanoatining rivojlanishiga kimyogarlarning hissasi ayniqsa, katta. Bunga sabab shuki, kimyo sanoatining rivojlanishi bilan charm va mo'yna sanoati rivojlanib kelgan. Yangi-yangi kimyoviy moddalarning yaratilishi va ularni charm va mo'yna sanoatida qo'llanilishi, charm va mo'yna ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashishiga, ulardan ishlab chiqariladigan mahsulotlar assortimentlarini turini ko'payishiga olib keladi.

Hozirgi vaqtgacha charm va mo'ynaga ishlov berish, ulardan tayyor buyumlar ishlab chiqarish qolaversa ularning ilmiy asoslarini texnologiyasini yaratishda bir qator olimlar, jumladan F.M. Parmon, Y.G. Andreyeva, I.V. Cherunova, L.V. Lopasova, L.A. Terskaya, G.P. Zareskaya, N.B. Rikova, E.I. Toktorbayeva, Y.X. Melikov, Y.V. Shkabrova, E.V. Tabitueva, I.I. Syachin, Y.S. Etkin, A.V. Dobroslavin, M. Rubner va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu o'zgarishlar natijasi o'laroq yurtimizda charm va mo'yna sanoatida turti tuman yangiliklar amalga oshirilib kelmoqda buning isboti sifatida mamlakatimizda faoliyat yuritib kelayotgan bir necha korxonalarining ish faoliyatlarini misol qilishimiz mumkin. Ushbu korxonalar hattoki o'z mahsulotlarini yaqin xorijiy

davlatlarga, jumladan Qozog‘iston, Rossiya va Qirg‘iziston Respublikalariga eksport qilmoqda. [2]

Charm sanoatining mahsulot ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan kompozitsiyalar tarkibida mahalliy va boshqa reagentlarni qo‘llash borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va olib borilmoqda.

Charm va mo‘yna tarkibida boshka moddalar bilan bir katorida teridan o‘tgan yog‘ moddalar va ishlab chiqarish jarayonlarida kiritilgan yog‘ va yog‘simon moddalar kiradi. Charm va mo‘yna tarkibidagi yog‘ va yog‘simon moddalar miqdori, charm va mo‘ynaning ishlab chiqarish uslubiga muvofik 0,5 % dan 30 % gacha bulishi mumkin [3].

Yog‘lashning samaradorligi yog‘larning tanlanganligiga, qiymatiga va yog‘lash jarayonining olib borish texnologiyasiga bog‘liqdir.

NATIJA VA MUHOKAMA

Moylashning maqsadi dermaga yog‘ moddalarini elementlar strukturasi yuzasini va ular orasiga kiritib, charm va mo‘yna teri to‘qimasiga egiluvchanlik yumshoqlik va suvga chidamlilikni oshirishdan iborat. Charmni struktura elementlari bir biriga nisbatan sirpanishining oshishi bilan deformatsiya kuchi ta’sirida ma’lum bir tomonga qarab yo‘nalish hosil bo‘lib, buning natijasida charm yuqori mustahkamlik va plastik xususiyatlariga ega bo‘ladi.

Tabiatiga ko‘ra yog‘lar, charmning qattiqligiga, zichligiga, mustahkamligiga, suvni singdirishiga va yemirilishiga barqarorligiga har xil ta’sir ko‘rsatadi.

Shuning uchun, charmga kompleks maqsadli xossalalar berish uchun yog‘larning har xil aralashmalari ishlatiladi. Charmning ma’lum maqsad uchun ishlatilishiga qarab, yog‘ aralashmalarining miqdori ularning ichiga kiradigan komponentlari va yarim mahsulot ichiga kiritiladigan yog‘ moddalariga qarab tanlanadi.

Emulsion yog‘lash usulida yarimmahsulotga yetarli darajada yumshoqlik egiluvchanlik berib, yog‘larni dermaga mayin va bir tekis tarqalishiga imkon beradi. Emulsion yog‘lashning mexanizmi quyidagidan iborat. Yog‘ emulsiyasi yarim mahsulot qatlamiga kiradi. Emulgator, dermaning struktur elementlari bilan o‘zaro ta’sirlashib emulsiyalash qobiliyatini yo‘qotadi. Pirovardida emulsiya struktura elementlar atrofida tarqalib, yog‘lar adsorbsiyalanadi va shu bilan bir qatorda yog‘lashda aniq agregat barqarorlikka ega emulsiyalar qo‘llaniladi. Emulsion yog‘lashning mexanizmi quyidagidan iborat. Yog‘ emulsiyasi yarim mahsulot qatlamiga kiradi. Emulgator, dermaning struktur elementlari bilan o‘zaro ta’sirlashib emulsiyalash qobiliyatini yo‘qotadi. Pirovardida emulsiya struktura elementlar atrofida tarqalib, yog‘lar adsorbsiyalanadi.[4]

Yogʻlarning yarim mahsulot derma qatlamlarida yutilishi asosan yogʻ emulsiyasining agregat barqarorligi charmning oshlash usuli oshlangandan keyingi va yogʻlashga boʻlgan operatsiyalariga bogʻliqdir.

XULOSA

Yogʻlashda aniq agregat barqarorlikga ega emulsiyalar qoʻllaniladi. Agar, emulsiyaning barqarorligi yetarli darajada boʻlmasa, uning tarqalishi qiyinlashadi. Yogʻ moddalar yarim mahsulotning sirt qismida joylashib nuqson keltirib chiqaradi. Oʻta barqaror emulsiya ishlatilganda uning yarim mahsulot qatlamida yemirilishi sodir boʻlmasligi, yogʻning toʻliq yutilmasligi va ularning tarqalishi dagʻal kechishi kuzatilishi mumkin [7].

Shu oʻrinda masalan poyafzal uchun charmni yogʻlash jarayonida eritmaning qovushqoqligi qancha yuqori boʻlsa, poyafzal kiyib yurganda charmning tarkibidagi yogʻ moddalari shuncha mustahkam saqlanib qoladi. Mos keladigan va tanlangan yogʻ aralashmalari maxsus qizdiriladigan rezervuarlarda toʻxtovsiz aralashirilgan holda tayyorlanadi.

REFERENCES

1. Страхов И.П. и др. Химия и технология кожи и меха. М.: Легпромбытиздат, 1985 г, 496 с.
2. Михайлов А.Н. Коллаген кожного покрова. М.: Легкая индустрия, 1971 г.525 с.
3. Каспарьянц С.А, Хлудеев К.Д. Кожевенное сырьё. М.: Легкая и пищевая промышленность, 1983 г, 200 с.
4. Справочник кожевника (Сырьё и материалы). Под ред. К.М.Зурабяна. М.: Легпищпром. 1984 г, 384 с.
5. Темирова М.И. “Чарм ва мўйна технологиясининг махсус боблари” фанидан маърузалар матни, типография “Муаллиф”, Бухара, 2000, 76 б.
6. Бальберова Н.А. "Справочник кожевника" (отделка, контроль производства) М. Легпромбытиздат 1987 г. 256 стр.
7. Темирова М.И., Қодиров Т.Ж., Рўзиев Р.Р., Тоиров М.Ш., Разработка технологии жирования наполнения кож вторичными продуктами масложировых комбинатов в композиции мочевино-формальдегидных смол. Ўзбекистон Кимё журналы, 1999, N1.50-52с
8. Левенко П.И. Химия и технология отмочно-зольных процессов. М.: Легкая индустрия, 1976 г. 200 с.
9. Гайдаров Л.П. Технология кожи. М.: Легкая индустрия, 1974, 168 с.

10. Страхов И.П., Санкин Л.Б., Куциди Д.А. Дубление и наполнение кож полимерами. М.: Легкая индустрия, 1967, 41 с.

11. Бальберова Н.А. "Справочник кожевника" (Технология) М. Легпромбытиздат 1986 г. 271 стр.

12. Г.А. Ихтиярова, Б.Н. Умаров, С.М. Турабджанов, Д.С. Исомитдинова
ОЧИСТКА Сточных вод текстильного предприятия композиций на основе вермикулита и модифицированного хитозана. Композицион материаллар илмий техникавий амалий журнал. №4. Тошкент-2021. 116-118 б.

13. Г.А. Ихтиярова, Б.Н. Умаров, Д. Исомитдинова. Очистка текстильных сточных вод вермикулитом модифицированным хитозаном. International Journal of Innovative Research in Computer and Communication Engineering. 2021. Volume-9. 9780 б.